

**BOBURSHUNOSLIKNING NAMANGAN MAKTABI TADQIQI
(XX ASRDAGI TADQIQOTLAR MISOLIDA)****Yoqubjonov Muslimbek Rustamjon o'g'li**Namangan davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o'zbek tili) yo'nalishi
2-boshqich magistranti
yokubzhonov98@inbox.com

Annotatsiya: Maqolada Boburning ijodiy va davlat arbobi sifatidagi faoliyatining olamshumul o'rni, ilmiy-adabiy asarlarining O'zbekistonda va xorijda o'rganilishi masalalari, Bobur nomli xalqaro jamoat fondi va ilmiy ekspeditsiyasining ulug' shoh va shoir ijodini o'rganishdagi ahamiyati xususida so'zboradi. O'zbek va jahon boburshunosligining asosiy yo'nalishlari belgilanib, bu borada olimlarning amalga oshirgan ishlari umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Bobur, ijodiy faoliyat, davlatchilik, jamoat fondi, ilmiy ekspeditsiya, boburshunoslik, ilmiy yo'nalishlar, Boburnoma, tarix, adabiyot, geografiya, etnografiya.

Jahon madaniyati tarixida ulug' shoh va shoir sifatida nom qoldirgan, Amir Temur avlodi, Hindistonda boburiylar saltanatiga asos solgan G'oziy Zahiriddin Muhammad Bobur qomusiy ilm sohibi va mohir lashkarboshi edi. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, Mirzo Bobur bizning bobomiz, bizning qonimiz, bizning bolalarimizga g'urur bilan buyuk ajdodimizdir. U Andijonda tug'ildi, Andijonda kamol topdi. Mana shunday ajdodlarimiz borligi, mana shular Andijon farzandi ekanligini hech qaysimiz, hech qachon unutmashimiz kerak. O'zligimizni anglashni shunday boshlashimiz lozim. Darhaqiqat, mana bir necha asrlar o'tsa-da, jahon ahli Bobur Mirzo shaxsiyatiga juda katta qiziqish bilan qaramoqda, uning jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, ilmiy va badiiy barkamol adabiy merosi O'zbekistonda, jumladan, ulug' shoirning kindik qoni to'kilgan ona zamin Andijonda so'nggi 25 yil ichida izchillik bilan o'rganilmoqda.

O'zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri, XVI asr boshlarida yashab ijod etgan atoqli nomoyondalaridan Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qarama qarshiligi, murakkab va qisqa hayotida (1483-1530) anchagina asarlar yaratgan bo'lsa-da, ularning hammasi bizgacha yetib kelgan emas. Boburning hozirgacha ilm xazinasiga kelib qo'shilgan asarlari uncha to'liq bo'lmagan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi Mubayyin nomli she'riy risolasi, Volidiya atalgan tasavvufga oid bir kitobchanning nazm bilan tarjimasini, Bobur ixtiro etgan va Xatti Boburiy nomi bilan mashxur bolgan alfavit jadvali hamda Boburnoma asaridan iboratdir.

Dunyo olim va adiblarining Boburshoh ijodiga munosabati, asosan, to'rt yo'nalishda kuzatiladi:

- Boburshohning shavkatli podshoh sifatidagi siyosiy faoliyati, saltanat asoschisi ekanligi.
- Boburnomani qomusiy manba sifatida o'rganib, uni jahon tillariga tarjima etish.
- Buyukshoir va olim merosiga ijodiy-ilmiy manba sifatida murojaat etishi.
- Boburshohning bunyodkor shaxsi va jasorati xususida badiiy asarlar yozish.

Har bir yo'nalishda muayyan ilmiy natijalarga erishilganini qayd etmaslik mumkin emas. Birinchi yo'nalishda jahon tarixchilari, siyosatshunoslari, faylasuf va ijtimoiy sohaning

boshqa vakillari Boburshohning Markaziy Osiyoda, Afg'oniston (Xuroson) va Hindistonda yaratgan ulug' saltanati (1495-1857) tarixi, davlatchilik tizimi, bunyodkorlik ishlari bilan shug'ullanar ekan, bu saltanat bevosita Amir Temur sulolasining davomi ekaniga e'tibor qaratmoqda. Bu jihatdan ingliz olimi U.Erskindan tortib AQShdagi Harvard universiteti professori V.Tekstongacha, hind davlat arbobi J.Nerudan tarixchi L.P.Sharmaga qadar, rus olimlari N.Ilminskiydan L.B.Alaevning istoriografik tadqiqotlarigacha keltirish mumkin. Ushbu yo'nalishda turk olimlari Rashid Rahmati Arat va Hikmat Boyir boburiylar tarixiga oid ishlari, buyuk ozarboyjon olimi Ziyo Buniyodovning otabeklar davlati, xorazmshohlar va temuriylar tarixi istirografiyaiga oid ishlarida Boburning davlatchilik sohasidagi qarashlariga e'tibor qaratgani bizni quvontiradi O'zbekiston davlatchilik tarixini o'rganishda Bobur va boburiylar saltanati o'rni XX asr 30-yillarida Bo'lod Soliev, 50-yillarda Sabohat Olimjonova va yangi asrda Omonulla Bo'rievning tadqiqotlari orqali yuzaga chiqmoqda.

Hozirgi kunda jahonning har bir rivojlangan mamlakatiga buyuk jahongashta asar Boburnoma kirib kelgan, u haqda yaratilgan tadqiqotlar ko'lami O'zbek olimi Sh.Rustamxo jaev tuzgan va Moskava chop etilgan Zahiriddin Muhammad Bobur va boburiylar bibliografiyasida ko'rsatilishicha, mingdan ortiq nomda jahonning 50 dan ortiq mamlakatlarida amalga oshirilgan. Buyuk jahongashta asar Boburnomaning dunyoning 17 tiliga tarjima etilgani, birgina ingliz tiliga 6 marta, fors tiliga 4 marta, urdu tiliga 3 marta, nemis, fransuz, rus va ozarboyjon tillariga ikki martadan turli tarjimonlar tomonidan o'girilgani ma'lum. Ozarboyjon olimlari Ramiz Askar va Fuzuliy Bayat Boburnomani tarjima etib Boburnomaning O'zbek va rus tillarida Toshkentda 1928-yildan boshlab to hozirga qadar 20 dan ortiq to'liq va tabdil nashrlari bor. O'tgan yillar davomida bu qomusiy asar bo'yicha O'zbekistonda adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarixiy, etnografik, siyosatshunoslik, geografik, biologik, san'atshunoslik va boshqa sohalar olimlari fundamental tadqiqotlar olib bormoqdalar. Zahiriddin Muhammad Bobur qilgan ijodiy merosining eng muxim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan Boburnoma asaridir. Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materialni o'z ichiga olganligi bilan, til va uslubning go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyoama nushalari izlana boshlangan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi. Asarning asli nomi Boburiya bo'lsada, uni Voqeanoma, Tuzuki Boburiy, Voqeoti Boburiy, deb atadilar, keyinchalik Boburnoma degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi. Bu asarning to'liq teksti 1857-yilda tukolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilgan. Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga H.U.Ilimenskiyning zo'r faoliyati ko'rsatganini alohida qayd etish kerak. Bu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz orientalistlaridan A.Beverij xonim Boburnomalning Haydarobodda topilgan bir qo'lyozmasining faksimilesini qo'lyozmaning ayni o'zini sinkografiya yo'li bilan nashr etdi. Bu nushaning qachon va kim tomonidan ro'chirilgani noma'lum. Bu ham to'liq tekst bo'lsa-da, Qozon bosmasiga nisbatan ba'zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bordir. Lekin umuman olganda har ikkala nusxa ham ayrim-ayrim nuqsonlardan holi emasdir. London nusxasining afzalligi bunda shundaki, A.Beverij nusxaning ayni o'zini berib juda yaxshi ish qilgan shu bilan birga asar oxrida mukammal kishi ismlari, geografiya va qabila, urug' nomlari ko'rsatkichi berilgan va ingliz tilida o'n betlik so'z boshisi ham bor. Lekin ko'rsatkichlarni transliterasiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nashrni to'g'ri o'qish masalasini qiyinlashtiradi. Mana shu ikki mavjud nusxaga asoslanib, 1848-1949 yillarda Boburnomaning ikki qismidan iborat to'liq

teksti bosib tarqatilgan edi. Bu nashr yangi o'zbek alifbosida, kilish va geografik nomlar ko'rsatkichi, to'liq lug'at, ba'zi bir qisqa izoh va tarjimalar ilovasi bilan bosilgan edi. Shundan keyin Boburnomaning to'liq teksti 1960 yili qayta nashga tayyorlandi ba nashr etildi.

Boburnomadagi ma'lumotlar birgina Markaziyo Osiyoga emas, balki butun Yaqin va O'rta Sharq hamda Janubiy Osiyo mamlakatlariga tegishli ekani mutaxassislariga ma'lum. Uning jahon miqyosidagi tadqiqotchilari xususida fikr yuritganda birgina fakti keltirish lozimki, ushbu asar bilan bog'liq mavzularda bugungi kungacha yuzdan ortiq doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari yoqlangan va bu ilmiy faoliyat hozirgi kunda ham muvaffaqiyatli davom etmoqda. Zahiriddin Muhammad Boburning adabiy-ilmiy merosiga munosabat masalasida buyuk O'zbek shoiri jahon madaniyatiga turkiy tildagi adabiyotning vakili sifatida kirib keldi va so'nggi asarlariga qadar, O'zbek tilida ijod qildi (ayrim juz'iy hollar fors va urdu tillarida yozgan ayrim asarlari haqida qaydlar bor). Bu jihatdan Bobur o'zining badiiy ijodi bilan Xoja Ahmad Yassaviy, Imodiddin Nasimiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy kabi buyukshoirilar qatorida sanaladi. Jahon olimlari Bobur adabiy merosini teran tadqiq etishga hamda she'riy va nasriy asarlarini dunyodagi yetakchi tillarga tarjima qilishga uning o'z zamonasi, ya'ni XVI asrdayoq kirishganlar.

Hozirgi kunda ayni masalalar jahonning yetuk boburshunoslari qatorida ozarboyjonlik olimlar bo'lgani va borligi bizni quvontiradi. O'zbek adabiyotini bilgan uni o'rganishga kirishgan olim borki, u Bobur ijodini cheklab o'tmagani ozarboyjon adabiyotshunosligining so'nggi yuz yillik tarixidan ma'lum. Bobur Mirzo adabiy-ilmiy merosi O'zbek olimlari uchun tuganmas tadqiqot manbai bo'lib kelgan, bu borada O'zbek olimlari Abdurauf Fitrat, H.Sulaymonov, V.Zohidov, S.Azimjonova, P.Shamsiev, S.Mirzaev A.O rinboev, T.Fayziev, A.Qayumov, S.G anieva, A.Abdug afurov, S.Jalilov, I.Nizomiddinov, G aybulla as-Salom, S.Hasanov, O.Shomatov, N.Komilov, S.Jalilov, S.Hasanov, A.Madraimov, N.Otajonov, Z.Xolmonova va boshqalarning nomlarini tilga olmaslik mumkin emas. Bugungi kunda O'zbek boburshunosligi jahon miqyosiga chiqdi va jahon boburshunosligining markazi ham O'zbekistonga va Boburning ona shahri Andijonga ko'chdi.

Shu o'rinda muhim bir fakt keltirmoqchiman: Bobur asarlarini o'rganish uchun XVII asrdan bugungi kungacha fors, fransuz va O'zbek tillarida 8 ta maxsus lug'at yaratilgan va o'nlab izohli hamda ikki, uch tilli lug'atlarda Bobur asarlaridagi so'zlar sharhlangan. Ma'lumki, bunyodkor podshoh va ulug' shoir shaxsiyati mana besh asrdan ortiq vaqt davomida insoniyatni qiziqtirib kelmoqda, qomusiy daho haqida yuzlab roman, qissa, doston, esse va boshqa janrlarda o'ndan ortiq mamlakatlarda badiiy asarlar yozilgani bizga ma'lum. Jumladan, Flora Enni Stilning Tojkor darvesh romani ingliz tilida, avstriyalik adib Frits Vyurtle Bobur yo'lbars qissasi, amerikalik Aleks Raterfordning Jannatga qasida tarixiy romani va boshqa asarlar xorijiy tillardan O'zbek va rus tillariga tarjima etilib e'lon qilingan.

O'zbek adabiyotida bevosita Bobur siymosi aks etgan Oybekning Bobur dostoni, P.Qodirovning Yulduzli tunlar, Avlodlar dovoni romanlari, X.Sultonovning Yo'lbarsning tug'ilishi, Oy botgan pallada, Saodat sohili qissa va hikoyalari hamda Boburiynoma ma'rifiy romani, To'lan Nizom, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Asqar Mahkamning doston va esselarini tilga olish mumkin. Sharq tasviriy san'atining gulto'ji bo'lgan miniatyurada Bobur va boburiylar siymosi hamda Bobur asarlariga ishlangan suratlar Sharqning mashhur musavviri Kamoliddin Behzod davridan tortib hozirgi kunda qadar minglab nusxalarda chizilgani bugun barchaga ayon.

Boburning tarixiy merosini o'rganish va targ'ib qilishda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi va ilmiy ekspeditsiya faoliyati haqida qisqa to'xtalib o'tmoqchiman. Fond o'z-o'zini boshqaruvchi nodavlat notijorat jamoat tashkiloti sifatida 1992-yilda Andijon shahrida tashkil etilgan. Ushbu tashkilot birgina Bobur Mirzo va boburiylar merosi bilan emas, balki zaminimizdan etishib chiqqan buyuk ajdodlarimiz Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, Amir Temur, Xusrav Dehlaviy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Abduqodir Bedil, Gulbadan begim, Mashrab, Zebunniso va boshqa olim va adiblar hayoti va ijodi, ular nomi bilan bog'liq moddiy va ma'naviy yodgorliklarni izlab topish, qo'lyozmalar va ularning nusxalarini xorijdan Vatanimizga oldib kelib ilmiy iste'molga kiritish, O'zbekiston hududidan tashqarida dafn etilgan ajdodlarimizning qabr va qadamjolarini aniqlash va obodonlashtirish, xalqlar o'rtasida do'stlik va ilmiy madaniy aloqalarni rivojlantirish borasida faoliyat olib bormoqda. Fondning Pokiston, Germaniya, Rossiya, Qirg'iziston, Yaponiya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Xitoy, Afg'oniston, Ozarboyjon, Qozog'iston, Vengriya, Shvetsiya mamlakatlarida bo'limlari mavjud.

Fond tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi istirohat bog'iga asos solingani, shoirning xoki Kobuldan Andijonga keltirilib bog'da ramziy qabr tiklangani va boshqa madaniy tadbirlarni esga olish mumkin. Fond homiyligida har yili Bobur mirzoning tavalludi kuni 14 fevralda ilmiy-ma'rifiy anjumanlar o'tkazilib kelinadi. Fond tashabbusi bilan 24 ta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy konferensiyalar o'tkazilgan. Bobur nomidagi xalqaro ilmiy ekspeditsiya 25 marta xorijiy mamlakatlarga avtomobil va boshqa transportlarda safar uyushtirgan. Bu safarlar davomida Afg'oniston (bir necha marta), Hindiston, Pokiston, Turkiya, Eron, Misr, Suriya, Iordaniya, Saudiya Arabistoni, Iroq, Xitoy, Malayziya, AQSh, Rossiya, Ozarboyjon, Armaniston, Gruzsiya va Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar tarixiy shaharlarida bo'lganlar, Bobur Mirzo qadamjolarini ziyorat qilib, bu mamlakatlarning muzey va kutubxonarida saqlanayotgan yuzdan ortiq qo'lyozma manbalar, kitob, surat, tarixiy ashyolar to'plab, Andijon shahridagi bog'da Bobur va jahon madaniyati muzeyini tashkil etgan. Hozirda bu mezev hududi vafa orliyatini kengaytirilmoqda.

Fond tashabbusi va uning ilmiy hay'ati a'zolari tomonidan tuzilgan Bobur ensiklopediyasining ikki nashri boburshunoslikning bugungi holatini imkon qadar to'liq tasavvur qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, fond homiyligida 50 dan ziyod adabiybadiiy, ilmiy va publitsistik asarlar chop etilgan. Shu jumladan, Moskvada Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburiylar bibliografiyasi O'zbek olimi Sh.Rustamxojaev tomonidan tuzilib, Rossiya Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi A.V.Dibo bilan hamkorlikda Moskvada Vostochnaya literatura nashriyotida 1000 nusxada (1284 sahifa) chop etilgan 2017-yildan boshlab fond homiyligi va bevosita rahbarligi ostida Bobur va dunyo ilmiy-ma'rifiy va adabiy-badiiy jurnal 2000 ga yaqin nusxada chop etilmoqda, hozirga qadar jurnalning 4 soni nashr bo'lgan.

Jahon adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi 19 asrdan boshlab o'rganilib kelinayotgan ganjinadir. Uning "Boburnoma"si o'zbek va xorijiy olimlar tomonidan juda ko'p o'rganilgan, hozirgi kunda ham to'xtovsiz tadqiq etilmoqdaki, uning ta'siri ostida xorijiy tillarda va ona tilimizda ham yangidan yangi monografik asarlar yaratilib, jahon adabiyotining rivojiga hissa qo'shmoqda. "Boburnoma" ingliz tiliga qayta-qayta tarjima qilingan asarlar qatorida xorijliklar tomonidan muallif uslubini o'rganish bilan bir qatorda tarjimonlarning uslubini ham tadqiq etish imkonini vujudga keltirdi. Ularni ona tiliga tarjima qilish ajdodlarimiz haqidagi xorijlik olimlar o'y-fikrlari va dunyoqarashlarini o'rganish xalqimizda o'zlikni anglash va g'ururlanish hissini paydo qiladi. Eng muhimi, asar ta'sirida yozilgan badialar, tanqidiy asarlar uslub rang-

barangligini ta'minlaydi va ularni qiyosiy o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tarjimashunos olimlar (inglizzabon) Viler Tekston, Stefan Deyl, Liza Balabanlilar, Rubi Lal, Abbos Naqi kabi olimlar hozirgi kunda Bobur ijodi ustida tinmay mehnat qilib, ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Bu yilgi ishlarimizni hisobga olsak, Rossiya fuqarosi Yuliy Rudnitskiyning "Moviy qush qanoti ostida", Yaponiya mamlakati Kioto universiteti professori Eyji manoning "Bobur" nomli risolasi o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashrga tayyorlandi. Kelgusi yilda "Boburnoma"dagi frazeologik birliklarning kontseptual O'zbekcha-ruscha-inglizcha tarjimalari lug'ati" nomli yangi tadqiqotni nashr ettirish rejalashtirilgan. O'zbek boburshunoslarimiz izlanishlarini hisobga oladigan bo'lsak, Bobur ensiklopediyasining uch tilda: o'zbek-rus ingliz tilida tayyorlab, nashr ettirishni maqsad qilingan. Bu borada olimlarimizning Bobur kabi javonmardlik yo'lini tutib, xayrli ishlarni amalga oshirishlari bugungi kun siyosati va Pandemiya sharoitida ham tinmay ijod qilayotganliklari e'tirofga loyiq.

Bobur kabi o'z yurtining zakiylari bo'lgan boburshunos olim va olimalar, ustozlar, xalqaro Bobur jamg'armasi xodimlari hamda "bobur va dunyo" jurnali tahririyatini yaqinlashib kelayotgan 2021 yil bilan tariklaymiz. Ilm-fan ravnaqiga qo'shayotgan hissalarimiz bardavom va barqaror bo'lishini tilaymiz. 2021 yilda ajdodlarimiz ijodi haqidagi yangi manbalarni ilmiy tadqiq etib, yana yangiliklarga shohid bo'lish hammamizga nasib etsin. Tilagim - o'zbek boburshunosligi jahonga yanada balandroq bo'y ko'rsatsin!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimjanova S. Indiyasiy divan Babura. T.: Fan, 1966.
2. Bobur abadiyati. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining jahon madaniyati turixida tutgan o'rnini mavzusidagi xalvaroanjudan materiallari. Andijon, 2017-yil 26-27-oktyabr.
3. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. —M.: 1983.
4. H. Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
5. S. Hasanov. Boburning „Risolayi aruz asari. -T.: 1986;
6. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.: 1996;
7. G'aybulloh as-Salom, N. Otajon. Jahongashta „Boburnoma . —T.: 1996;
8. Bobur asarlariga tuzilgan lug atlar / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: Sharq NMAK, 2017. B. 112-13.
9. O'zbek adabiyotida Bobur siymosi / Bobur ensiklopediyasi. Toshkent: Sharq NMAK, 2017. B. 538-42.